

CHET TILI DARSLARIDA ROLLI O'YINLARNI QO'LLASHNING AHAMIYATI.

D. Sh. Israilova,

Alisher Navoiy nomidagi

O'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchi

E. T. Bo'riyeva.

O'zbekiston davlat jaxon tillari universiteti o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Tadqiqotlarga ko'ra, chet tili darslarida o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshirishga, ijtimoiy va hissiy ta'limni rivojlantirishga yordam beradi va o'quvchilarni tavakkal qilishga undaydi. Rolli o'yinlarning berilishi ulardagi egallangan so'z boyligini amalda sinab ko'rish, takrorlab mustaxkamlash imkonini beradi. Ushbu maqolada rolli o'inlar va ularning ahamiyati haqida gapirilgan.*

***Kalit so'zlar:** ro'lli o'yinlar, o'qituvchinining vazifasi, interfaol metodlar, xorijiy til, ijodiy yondoshuv, ijodkorlik.*

***Annotation:** According to research, the use of games in foreign language classes helps to increase student engagement, develop social and emotional learning, and encourages students to take risks. Providing role-playing games allows you to test the acquired vocabulary in practice and reinforce it repeatedly. This article talks about role-playing games and their importance.*

***Key words:** role-playing games, teacher's task, interactive methods, foreign language, creative approach, creativity.*

***Аннотация:** Согласно исследованиям, использование игр на уроках иностранного языка помогает повысить вовлеченность учащихся, развивать социальное и эмоциональное обучение и побуждает учащихся идти на риск. Предоставление ролевых игр позволяет проверить полученную лексику на практике и неоднократно ее закреплять. В этой статье рассказывается о ролевых играх и их значении.*

***Ключевые слова:** ролевые игры, задание учителя, интерактивные методы, иностранный язык, творческий подход, творчество.*

Hozirgi kunda O'zbekistonda yoshlarning chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari kun sayn ortib bormoqda. Mashhur nemis adibi Gyote "Xorijiy tilni bilmagan o'z ona tilini ham bilmaydi" degan ekan. [1. 256-bet] Bu xorijiy tillarni o'rganishning muhimligini e'tirof yetadi.

Germaniyada o'qishga qiziqish butun dunyoda ortib bormoqda. Bu hatto maktab o'quv dasturida nemis tili bo'lmagan mamlakatlarda ham talabalarni Germaniyada o'qishga tayyorlaydigan nemis kurslariga talabning ortishiga olib keladi. Shunday globallasuv davrida ta'lim oluvchilarning chet tillarini bilmasliklarini tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Chunki yurtimizda necha yillardan beri xorijiy tillar o'rta va oliy ta'lim tizimining uzluksiz qismi bo'lib kelmoqda. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda bir yoki bir nechta chet tillarni bilish o'zaro munosabatlarda kommunikativlikni rivojlantirish bilan birga nufuzli ish o'rniga ega bo'lish imkoniyatini ham yaratadi.

Chet tillarni mukammal o'rganish uchun avvalo maqsad aniq bo'lishi va uni o'rganishga kuchli hohish, qiziqish bo'lishi kerak. Til o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirishda o'qituvchining chet tili darsini metodik jihatdan to'g'ri va didaktikaga boy tashkillashtirishi muhim ahamiyat kasb yetadi. Dars mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish, ma'naviy sifatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimini nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi. Til o'rgatishda o'qituvchi muloqot qilish uchun zarur vositalar bilan o'quvchilarni ta'minlash orqali yordamchi sifatida o'z vazifasini bajaradi. Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor» bo'lishi kerakligini anglashi lozim. [2. 263]. U o'z o'quvchi-talabalarini fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lim usullarini yaxshi bilishi kerak. Mazmunli va samarali o'qitish imkonini beruvchi ko'plab sinab ko'rilgan va yangi

o'qitish usullari mavjud. Biroq qaysi uslub nimaga qaratilganligini bilish muhim.

Masalan:

- "Coctail-Party" o'quvchini faollashtirish uchun -Ishtirokchilar bir-birlari va kurs rahbari bilan erkin muhitda tanishishlari kerak.

- „Stationenlernen“ mustaqil harakatni rag'batlantirish uchun. Ishtirokchilar individual yoki kichik guruhlarda faol va mustaqil ishlaydi. O'qituvchi "o'rganish stansiyalari" ni taqdim etadi. Turli o'quv stansiyalarining materiallari mavzu atrofida to'planishi mumkin, turli o'quv yo'llariga asoslanishi mumkin yoki materialni takrorlash uchun ishlatilishi mumkin.

- „Wortigel“, „Vermutungen äußern“. Oldingi bilimlarni faollashtirish uchun. Oldin o'rgangan so'z boyligini ishlatib taxminiy fikr bildiriladi.

-„Guruhda o'rganish“- Gruppenpuzzle, Stationenlernen

-.....

So'nggi yillarda chet tili mashg'ulotlarda interfaol o'yinlarni, rolli o'yinlarni tadbiq etish o'zining tabiiyligi, stresslardan holi yekanligi bilan anchayin ijobiy samara bermoqda. "Rolli o'yin" usuli ko'pincha chet tili darslarida o'rganuvchilarni faollikka undash va ularning til ko'nikmalarini oshirish uchun tavsiya etilgan vositalardan biri hisoblanadi. O'yinlar idrok qilishni, aniqlikni, diqqat e'tiborni rivojlantiradi, fantaziyani kuchaytiradi, suhbatdoshining so'zlarini anglash va javob berishdagi nutq faoliyati tezligini oshiradi. Turli xil situatsiyali, rolli o'yinlar mashg'ulot jarayonida ijodiy atmosferani yaratadi, tildagi va o'qituvchi oldidagi to'siqlarni bartaraf etadi, quvonch va qoniqish tuyg'usini beradi. Situatsiya tashkil etilganda xorij tilida keng ishlatiladigan yordamchi so'zlardan keng foydalaniladi, asosiy e'tibor dialogik nutqni rivojlantirishga qaratilgan. Masalan:, marhamat, salomlashish, iltifotni anglatuvchi so'zlardan va turli vaziyatlarni ifodalovchi rasmlar hamda ko'rinishlardan foydalanish mumkin bo'ladi. Rolli o'yinlar davomida xayotiy baxs-munozaralarni muhokama qilish vazifasi topshirilsa, darsning jonli tarzda va barchaning faol ishtirokini ta'minlanishiga erishish mumkin.

Shuni ta'kidlash joyizki, rolli o'yinlarni darsda qo'llash o'z-o'zidan yuz bermaydi. Buni tashkillashtirishda o'qituvchining tayyorgarchiligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o'qituvchi

- rolli o'yinlarni tashkillashtirish va o'tkazishni to'g'ri rejalashtirishi
- rolli o'yinlarni o'tkazishga mos keladigan mavzu va matnni tanlashi
- rolli o'yinlarni o'tkazish qoida va vazifalarini aniqlab olishi kerak bo'ladi.

[3.25-bet]

Rolli o'yinlarga tayyorgarlik ko'rishning dastlabki bosqichida o'quvchilar matn bilan tanishadilar, leksikasi ustida ishlaydilar. Tekst bo'yicha assotsiogramma tuzishlari, matndagi qahramonlarga xarakteristika berishlari, ular haqida informatsiya to'plashlari, mavzuga doir film ko'rishlari, mashqlar qilishlari, matndagi so'z birikmalari va iboralarga o'zlari gaplar tuzib, ularning ishlatalish shakli va mazmunini tushunib olishlari mumkin. Bu kabi mashqlar ularning lug'at boyliklarini kengaytirib, analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

To'g'ri tashkillashtirilgan rolli o'yinlarda kundalik hayotda uchraydigan situatsiyalar aks etgan bo'ladi, ziddiyatli vaziyatlar va uni bartaraf etilishi, ziddiyatlarning yechim topishi ifodalangan bo'ladi. Sahnalashtirish orqali tuziladigan situatsiyalar talabalarning boshqa bir inson qiyofasida namoyon bo'lishlari, ularning ijobiy va salbiy tomonlari ko'rishlarini va undan xulosa chiqarishlariga yordam beradi. Masalan "Arztbesuch", „In der Apotheke“, „Wegbeschreibung“ kabi mavzular bilan ishlab bo'lingach yakunlovchi vazifa sifatida rollarga bo'linib kichik dialoglar, sahna ko'rinishi tashkillashtirish mumkin. Bunda eng ko'p ishlatiladigan so'z va iboralar foydalanish uchun oldindan beriladi.

Arztbesuch: zum Arzt gehen., /Warten Sie im Wartezimmer./ Ist das erste Untersuchung? /Dieses Medikament wird nur auf Rezept abgegeben/ Wir brauchen einen Krankenwagen...

Wegbeschreibung: bei der nächsten Kreuzung abbiegen/ gehen Sie zuerst..., danach, nach links, nach rechts/ gehen Sie geradeaus.. va xk. ...

To'g'ri tashkil etilgan situatsiya, maqsadga yo'naltirilgan bunday o'yinlar talabalarning qiziqtirishini oshirish, ularni hissiy jihatdan faollashtirish orqali

tarbiyaviy maqsadni ko'zda tutadi. Guruh bilan o'ynaladigan o'yinlar davomida hamkorlik, o'zaro mehr tuyg'ulari qaror topadi. Bundan tashqari chet tilini o'yinlar orqali o'rganish shunchaki xuzur bag'ishlaydi. Demak, talabalarni situatsiyalarga ko'niktirish yoki tayyor situatsiya asosida xorijiy tilni o'zlashtirish muhim ahamiyatga molikdir. Ushbu yondashuvlarga asoslanib, ularni yanada rivojlantirish, shuningdek, raqamli mediadan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ilmiy munozara: muammo, yechim va yutuq. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent 2016.
2. "Zamonaviy va lingvodidaktikaning kommunikativ aspektlari." Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari Samarqand 2016.(1-2qism)
3. Grätz, Ronald (2001): Vom Spielen, Leben, Lernen. In: Fremdsprache Deutsch: Spielen – Denken – Handeln, Heft 25 – 2001.
4. <https://www.studysmarter.de/schule/deutsch/textproduktion/wegbeschreibung/>
5. https://deutschlernen.zum.de//Unterrichtsmethoden#Welche_Methoden_wo